



Nosirjonov Muhammadamin Sunnatjon o'g'li

Alfraganus universiteti

2-kurs arab filologiyasi talabasi

Tursunaliyeva M.A.

Ilmiy rahbari:

Mustafo G'alayoniy shunday deydi: izofa ifoda maqsadiga ko'ra yana ikki turga bo'linadi²⁹:

1. Ma'naviy izofa إضافة معنوية
2. Lafziy izofa إضافة لفظية

Ma'naviy izofa – oidlik, tegishlilik ma'nosini ifodalaydi. Masalan: مفتاح الدار - hovli kaliti, مأكل الناس - insonlar ozuqasi.

Lafziy izofadan ko'zlangan maqsad qaratqichli birikmani yengillashtirishdan iborat bo'lib, bu yengillashtirish ikkilik va to'g'ri ko'plikdagi morfologik ko'rsatkich hisoblanuvchi ن ni tushirib qoldirish bilan bo'ladi. Lafziy izofada tegishlilik ma'nosidan ko'ra sifatlash ma'nosi ustunroq bo'ladi. Masalan:

رأيت رجلا نصار المظلوم - Men mazlumlarga yordam beruvchi kishini ko'rdim.

عاشر رجلا حسن الخلق - Yaxshi xulqli kishi bilan hamsuhbat bo'ling.

Izofaning bu turi “majoziy izofa” (إضافة مجازية) ham deb ataladi³⁰.

Izofada birinchi bo'lib keluvchi muzof ikkita morfologik ko'rsatkichdan holi bo'ladi. Ikki so'z qaratqich va qaralmish munosabatiga kirishganda sintaktik, morfologik o'zgarishlar sodir bo'ladi.

1. Qaralmish bo'lib kelayotgan so'zning oxirgi morfologik ko'rsatkichi tanvin³¹ bo'lmaydi. Qaralmishdagi ikkilik va to'g'ri ko'plikni ifodalovchi morfologik ko'rsatkich ن tushib qoladi.

Ustozning kitobi – (كتاب الأستاذ)

Ustozning ikki kitobi – (كتابا الأستاذ)

Ustozning o'quvchilari – (متعلمون الأستاذ)

2. Qaralmish bo'lib kelayotgan so'z tegishlilik, oidlik ma'nosini ifodalovchi ma'naviy izofada kelganda holat kategoriyasining morfologik ko'rsatkichi bo'lgan ال ni olmasdan keladi.

Ustozning kitobi – (كتاب الأستاذ)

Lafziy izofada esa qaralmish ikkilik, to'g'ri ko'plikda bo'lsa, ال ni qabul qilib kelishi mumkin.

المكرما سليم – Salimning ikki ulug'lovchisi

²⁹ مصطفى الغلاييني. جامع الدروس العربية. - دمشق.: ناشرون. 2010. - 648 ص

³⁰ مصطفى الغلاييني. جامع الدروس العربية. - دمشق.: ناشرون. 2010. - 650 ص





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Alining ulug'lovchilari – المكرموا علي

Shuningdek, bu kabi holatni qaratqich ikkita bo'lganda ham kuzatish mumkin. Yoki qaratqich o'zining tarkibiy qismida bo'lgan narsaga qaralmish bo'lganda ham bu kabi holat, ya'ni ال bilan kelishi kuzatiladi. Masalan:

الود، انت المستحقة صفوه مني و إن لم أرج منك نوالا

Sevgi! Agar hadya istamagan bo'lsam sendan,

Sen mendan bo'lgan sof mehrga arzigulixsan.

Aynan bir bo'lgan ikki turdosh ot qaratqichli birikma hosil qilmaydi. Masalan:

ليث الأسد - sherning sheri kabi

Bu ikki so'z atoqli ot bo'ladigan bo'lsa, محمد خالد - Xolidning Muhammadi kabi bo'lishi mumkin.

Aniqlanib kelayotgan so'z o'zining aniqlovchisi bilan qaratqichli birikma hosil qilmaydi. Masalan:

رجل فاضل - Fozilning kishisi.

Agar qaratqichli birikmada qaratqich tushib qolgan bo'lsa, sifat bilan ot izofa hosil qilishi mumkin. Masalan:

مسجد الجامع - Jome' masjid

دار الآخرة - Oxirgi diyor

Bu ikki so'z birikmasida sifatdan oldin tushirib qoldirilgan ot so'z turkumiga oid so'z bo'lgan. Boshqa biror bir holatda sifat bilan ot, agar sifat otlashmagan bo'lsa, qaratqichli birikma - izofa hosil qilmaydi.

Yuqoridagi so'z birikmasining to'liq varianti quyidagicha:³²

مسجد المكان الجامع Jamlovchi joy masjidi.

دار الحياة الآخرة Oxirgi hayot diyori.

Aniqlanib kelayotgan so'z bilan aniqlovchi o'rtasida qaratqichli birikma hosil qilish mumkin. Masalan:

عظيم أمر - ishning kattasi (katta ish)

جائبة خبر - xabarning yangisi (yangi xabar)

Ko'plikni ifodalovchi yoki umumiylikni ifodalovchi so'z bilan xususiylikni ifodalovchi so'z qaratqichli birikma hosil qilishi mumkin.

شهر رمضان - Ramazon oyi

يوم الجمعة - Jum'a kuni

Arab tilida, shuningdek, غير (...dan boshqa, emas), كلتا(ikkala), كل (har bir, hamma), جميع (hamma), شتى (barcha), عدة (bir necha) so'zlari o'zidan keyin kelgan so'z bilan qaratqichli birikma hosil qilib, bu so'zlarning o'zi muzof (qaralmish) vazifasida keladi. Ma'nolari aynan o'zbek tili kabi qaratqichli aniqlovchi ma'nosida bo'lmasligi ham mumkin. Bu esa arab tilining o'ziga xosliklaridan hisoblanadi.

³² (1/308) شرح الأشموني

مصطفى الغلاييني. جامع الدروس العربية. - دمشق.: ناشرون. 2010. - 650 ص





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

وصل جميع الضيوف المحترمين إلى عاصمة سوريا بكل سرور

Barcha hurmatli mehmonlar xush kayfiyat bilan Suriya poytaxtiga yetib kelishdi.

غير so‘zi ot va olmoshdan oldin kelsa, “...dan boshqa” degan ma’noni ifodalaydi. Bu so‘z sifatdan oldin kelsa, o‘sha sifat mavjud emasligini ifodalaydi.

شتى المدعوين اشتركوا غير الأفغانيين في المؤتمر الدولي

Afg‘onlardan boshqa barcha taklif qilinganlar xalqaro konferensiyada ishtirok etishdi.

دائما أقوال الأولاد ذوي القلب السليم غير سيئة

Doimo samimiy qalbli bolalarning gaplari yomon emas.

كل so‘zi ikki ma’noni ifodalaydi: har bir, hamma. كل so‘zidan keyin kelayotgan so‘z birlikda, holat kategoriyasining morfologik ko‘rsatkichi ال artiklisiz kelganda “har bir” degan ma’noni ifodalaydi.

كل إنسان مسئول عن رعيته Har bir inson qo‘l ostidagilarga javobgardir.

كل so‘zidan keyin kelayotgan so‘z ko‘plikda, holat kategoriyasining morfologik ko‘rsatkichi ال artikli bilan kelganda “hamma” degan ma’noni ifodalaydi.

كل البيوت في المدينة مزودة بالمرافق العصرية Shahardagi hamma uylar zamonaviy qulayliklar bilan ta’minlangan³³.

Izofa turlari quyidagilar:

1. **ma’nosida izofa tegishlik, mansublik ma’nolarini ifodalaydi.**

كِتَابُ الْمُدَرِّسِ

O‘qituvchining kitobi

كِتَابُ لِلْمُدَرِّسِ

O‘qituvchiga tegishlik kitob.

دَفْتَرُ (لِ) عَمَّارٍ

Ammorning (ga tegishlik) daftar.

2. **ma’nosida izofa bir bir otni biror predmetdan yasalganligini bildiradi**

بَابُ (مِنْ) الْخَشَبِ

Yog‘ochli (dan yasalgan) eshik, ya’ni yog‘ochdan qilingan eshik.

سَوَّارُ (مِنْ) ذَهَبٍ

Oltinli (dan bo‘lgan) bilakuzuk

خَاتَمُ (مِنْ) فِضَّةٍ

Kumushli uzuk.

3. **ma’noli izofa. U joy va vaqtning ifodalovchi izofa**

فُعُودُ (فِي) الْبَيْتِ

Uyda (ichida) o‘tirish.

سَهْرُ (فِي) اللَّيْلِ


Kecha (ichida) turish.

سَفَرُ (فِي) اللَّيْلِ

Sayohat (ichiga) tungi sayohat yoki tungi sayohat.

قِيَامُ (فِي) اللَّيْلِ

³³ <https://arabic.uz/maqolalar/1584-izofaa.html>





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Kechasi yoki tungi hushyor turish.

4. ك ma'nosida izofa. Ekivalentlikni ifodalaydi

لَوْلُو (ك) الدَّمْع

Ko'z yoshlari gavhari (ya'ni, marvarid kabi ko'z yoshlari)

أَصِيلُ (ك) الذَّهَبِ.

Oltin oqshom (oltin oqshom).

Arab xalqlarida ikki so'zning qo'shilishini izofa deb yuritilishi bizga ma'lum bo'ldi. O'zbek va rus arabshunoslari izofa deb ikki otning qaratqichlik munosabati bilan qo'shilish holatini yoinki otlarga birikma olmoshlarini qo'shilish holatini aytishsa, arab nahvshunoslari hatto fe'l va old ko'makchilarga ham qo'shiluvchi olmoshlarni izofa deb yuritilishi haqida ma'lumotlar berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Халидов Б.З. Учебник арабского языка. – Т., 1981.
2. Ҳасанов М., Абзалова М. Араб тили дасрлари /Ўқув қўлланма. – Т., 2016.
3. Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. – Т., 1997.
4. مصطفى الغلايني. جامع الدروس العربية. – القاهرة-المنصورة: دار الغد الجديد، 2007.
5. <https://arabic.uz/maqolalar/1584-izofaa.html>
6. Khamidova, M. A., & Orifkhonova, N. O. (2024). THE IMPORTANCE OF MICRO AND MACROELEMENTS IN MICROCLONAL PROPAGATION OF POTATOES. СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ИССЛЕДОВАНИЯ, 1(1), 195-197.
7. Rasulovna, N. Z. (2024). Some Aspects of Organizing and Improving Students' Oral Speech at Non-Language Faculties. Miasto Przyszłości, 49, 373-375.
8. Nazirova, Z. (2023). METHODS OF MEASUREMENT OF CORNEA DIAMETER IN CHILDREN. Science and innovation, 2(D12), 482-485.
9. Nazirova, Z. (2023). IMPROVING THE USE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE TO VETERINARY STUDENTS. Science and innovation, 2(B7), 218-220.
10. Zilola, N. (2022). XORIJIY TILLARNI O 'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI (RUS TILI MISOLIDA). ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA, 1(1), 188-192.
11. Nazirova, Z. R. THE MANAGEMENT ALGORITHM OF CHILDREN WITH REFRACTORY GLAUCOMA. Impact Factor: 4.9, 11.
12. Назирова, З. Р. (2021). THE MANAGEMENT ALGORITHM OF CHILDREN WITH REFRACTORY GLAUCOMA. УЗБЕКСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ, (SPECIAL 1).
13. Rasulovna, N. Z. (2021, April). APPLICATION OF VIDEO MATERIALS IN THE FORMATION OF COMPETENCE OF VETERINARY STUDENTS IN THE





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

STUDY OF THE RUSSIAN LANGUAGE. In Archive of Conferences (Vol. 18, No. 1, pp. 37-38).

14. Khamidova, M. A., & Orifkhonova, N. O. (2024). THE IMPORTANCE OF MICRO AND MACROELEMENTS IN MICROCLONAL PROPAGATION OF POTATOES. СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ИССЛЕДОВАНИЯ, 1(1), 195-197.

15. Suyarov, A. (2023). INNOVATION USULLAR-TALABALARNING TA'LIM VA KOGNITIV FAOLIYATINI TASHKIL ETIRISHNING YANGI TARZI. Philological issues are in the eyes of young researchers, 1(1).

16. Suyarov, A., & Axmadov, H. TOG JINSLARI VA ULARNING FIZIKAVIY-MEXANIKAVIY XOSSALARI. TOHIKEHT-2021, 28.

17. Bo'ronov, N. (2024). MEDIA SAVODXONLIKNI OSHIRISHDA VR LABORATORIYANING TASHKILIY MODUL MEXANIZMI. TAMADDUN NURI JURNALI, 5(56), 454-457.

18. Nazim, B. R. (2022). O 'zbek tilshunosligida takror va uning uslubiy xususiyatlari ba'zi adabiyotlarda, ayrim tadqiqot ishlarida o 'rganilgan. Erkin Vohidov ijodida doston janri alohida ahamiyatga ega. Mazkur maqolada Erkin Vohidov "Nido" dostonining til xususiyatlari haqida so. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(3), 500-504.

19. Буронов, Н., & Шоғуломов, Д. (2020). PREVENTING INFORMATION HAZARDS IN ONLINE PUBLICATIONS ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ. ББК 60 Е244 Ответственный редактор: Гуляев Герман Юрьевич, кандидат экономических наук Е244, 24.

20. Bo'ronov, N. M., & Nurutdinova, M. (2019). XXI ASRDA DINIY EKSTREMIZM TAHDIDLARI. In WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS (pp. 289-290).

